Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SANOAT KORXONALARIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZLAR HISOBI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Ilmiy rahbar: **Umarov Ilhomjon Yuldashevich**
Andijon davlat texnika instituti
“Menejment” kafedrasi professori,
Raxmatullayev Hamidjon Akramjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
e-mail:khamidjonrakhmatullaev@gmail.uz
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20058300

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirish masalalari o’rganildi. Maqolani yozishdan asosiy maqsad-korxonalarda qarzdorlik holatini samarali nazorat qilish,moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va pul oqimlarini optimallashtirishga yondashuvlar ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek debitor va kreditor qarzlarning iqtisodiy mohiyati,ularni hisobini yuritish usullari,mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari tahlil qilinadi. Bundan tashqari zamonaviy hisob tizimlari va tahlil usullaridan foydalanish orqali qarzdorlikni boshqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Korxonalarda debitor va kreditor qarzlarni nazorat qilish, ularni aylanish tezligini oshirish hamda muddati o’tgan qarzlarni kamaytirish bo’yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: debitor qarzlar, kreditor qarzlar, pul oqimlari, muddati o’tgan qarzlar, likvidlik, monaviy hisob tizimlari, tahlil usullari, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko’p jihatdan ularning moliyaviy resurslarini oqilona foydalanishiga bog’liq. Ayniqsa debitor va kreditor qarzlar hisobini to’g’ri tashkil qilish hamda ularni chuqurroq tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Debitor qarzlar korxonani sub’ektlardan undirilishi kerak bo’lgan mablag’larni ifodalasa, kreditor qarzlar korxonaning o’z majburiyatlarini aks ettiradi. Ushbu ko’rsatkichlarning optimal darajada boshqarilishi pul oqimlarini uzluksizligini ta’minlash bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirishda bir qancha muammolar mavjud. Jumladan, muddati o’tgan qarzlarning ortishi hisob-kitob intizomini yetarli darajada emasligi, axborot texnologiyalardan kamroq foydalanish kabi holatlar korxonalarning moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko’rtsatmoqda deyish mumkin. Ushbu sohada samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish bundan tashqari amaliyotga tatbig’ etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[1]. Debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirish orqali korxonalarda moliyaviy intizomni mustaxkamlash, likvidlik darajasini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish juda muhim. Ushbu maqsadga erishish uchun debitor va kreditor qarzdorliklarni iqtisodiy mohiyatini o’rganish, ularni hisobga olish va tahlil qilish, mavjud muammolarni o’rganib ularni bartaraf etish yo’llarini o’rganishimiz kerak. Shu tariqa, sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirish mavjud qarzlarni yo’qotish iqtisodiy boshqarish tizimlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirish iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda qarzdorlikning iqtisodiy mohiyati,

ularni tarkibi va hisobini yuritish usullari va boshqaruv mexanizmlari o'rganiladi. Luka Pacioli-buxgalteriya hisobining asoschisi hisoblanadi. Uning fikricha hisob tizimi korxonaning barcha moliyaviy majburiyatlarini to'liq va aniq aks ettirilishi kerar bundan tashqari, Debitor va kreditor qarzlar ikkiyoqlama yozuv asosida yuritilishi zarur, bu esa nazoratni kuchaytiradi deb takidlab o'tgan. Bundan tashqari debitor va kreditor qarzlar hisobini tahlil qilish va takomillashtirish korxonaning moliyaviy barqarorligini ham ta'minlaydi[2]. Debitor va kreditor qarzlar ksanoat korxonalarning ajralmas bir qismidir.

Robert Anthony-debitor qarzlarni boshqarish korxonaning likvidligini taminlashda muhim omil hisoblanadi, va uning tadqiqotiga ko'ra debitor va kreditor qarzlarni tahlil qilishda ularning muddati, qaytarilish ehtimoli va risk darajasiga e'tibor berish kerak deb takidlagan[3]. Ularning tadqiqotlariga ko'ra qarzdorlikni samarali boshqarish uchun to'lov intizomini kuchaytirish, kredit siyosatini takomillashtirish va risklarni minimallashtirishni ta'kidlagan. Shuningdek, moliyaviy tahlil usullaridan, jumladan, koeffitsientlar tahlili, pul oqimlari tahlili va likvidlik ko'rsatkichlaridan foydalanish muhimligi qayd etiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov va A.T.Ibrohimov tamonidan esa korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishni o'ziga xos xususiyatlarini milliy hisob standartlari asosida debitor va kreditor qarzlarni aks ettirish, ularni inventarizatsiya qilish va nazorat qilish masalalari chuqur muhokama qilingan. Shu bilan birga qarzdorlikni boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini joriy qilish va ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish zarurligini alohida e'tirof etishdi.Biroq, o'rganilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobini kompleks tarzda takomillashtirish orqali, ularni real vaqt rejimida monitoring qilish va tahlil mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borilgan[4].

Olimlarning tadqiqot metodologiyasi asosan amaliy va nazariy usullar uyg'unligiga asoslangan. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli, taqqoslash usuli, statistik tahlil usuli, koeffitsientlar tahlili usuli, ekonometrik yondashuvlar kabi usullardan foydalaniladi. Debitor va kreditor qarzlarning iqtisodiy mohiyatini hamda ularning korxona moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganishda, turli davrlar va sanoat korxonalari kesimida qarzdorlik ko'rsatkichlarini solishtirish orqali ularni o'ziga xos tendensiyalarini aniqlashda, qarzdorlikning hajmi, tarkibi va dinamikasini baxolashda, debitor va kreditor qarzlarning aylanish darajasi, likvidlik va to'lovga qobiliyat ko'rsatkichlarini aniqlashda, qarzdorlik ko'rsatkichlari va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qo'llaniladi[5].Shuningdek tadqiqotda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, moliyaviy hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy jurnallardan foydalaniladi.

Xulosa

Korxonalar o'rtasida bo'ladigan, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob kitoblarda to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan vaqt bo'yicha farqlanishlar yuzaga keladi. Bunda korxona tamonidan to'lanishi kerak bo'lgan majburiyatlar ya'ni qarzlar debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni ifodalasak, qarshi tamonga to'lanishi kerak bo'lgan kreditorlik qarzlar, qarshi tamondan olinishi kerak bo'lgan qarzlar esa debitorlik qarzlar deyiladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlar bo'yicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Sanoat korxonalarida debitorlik va kreditorlik qarzlar korxona balansi, ya'ni chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to'g'risidagi hisobotda ham aks ettiriladi. Korxonalarning debitor va kreditor qarz majburiyatlari korxonaning sotilgan maxsulotlarning to'lanishi bilan uzviy bog'liq, chunki sotilgan maxsulotlardan kelgan mablag'lar debitda aks ettiriladi. Agarda maxsulot sotib olish uchun qilingan xarajatlar kreditda aks ettiriladi. Korxonaning balansini to'g'ri tashkil etish uchun qarzlar kreditlar asosiy vositalarni ham hisobga olishi kerak. Debitor va kreditor qarzlar hisobini yuritishda kamchiliklar mavjud ular asosan hisob-kitobning sustligi, to'lov qobiliyatining pastligi, muddati o'tgan qarzlarning muddati ortib borishi hamda

zamonaviy hisob tizimi va tahlilini takomillashtirishda va ushbu tahlil usullaridan yetarli darajada foydalanmayotganligi bilan bog'liq. Xulosa qilib atsak sanoat korxonalarida debitor va kreditor qarzlar hisobi va tahlilini takomillashtirishda asosan ushbu tahlilklar, taklif va tavsiyalar muhim ya'ni korxona uchun debitor qarzlarning ortishi foyda va kreditor qarzlarning ko'payishi esa zararni keltirib chiqaradi. Debitor qazlar korxona uchun juda muhim chunki kelayotgan foyda korxonani uzoq muddat faoliyat ko'rsatishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari, Toshkent, 2002 y., 38-bet
2. Luca Pacioli. "Double-entry Bookkeeping" (Ikkiyoqlama buxgalteriya hisobi). London: "Institute of Chartered Accountants", 1924. 124-bet.
3. Robert N. Anthony, Vijay Govindarajan. "Management Control Systems". New York: McGraw-Hill Education, 2007. 768 p.
4. A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov "Moliyaviy va boshqaruv tahlili" darslik. T.:"Sharq",2005. 242- bet.
5. Shodmonov Sh.N., G'afurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.